



**ZAMONAVIY TA'LIM STRATEGIYALARI:
MUAMMO VA YECHIMLAR**
Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya
2026-yil 30-aprel



**BO'LAJAK O'QITUVCHILARDA KREATIV YONDASHUV ASOSIDA
LOYIHALASH KO'NIKMALARINI RIVOJLANTIRISHNING ZAMONAVIY
TEXNOLOGIYALARI**

Nazirova Feruzaxon Abduaziz qizi

Qo'qon Davlat Universiteti tayanch doktoranti

Annotatsiya. *Mazkur maqolada bo'lajak o'qituvchilarda kreativ yondashuv asosida loyihalash ko'nikmalarini shakllantirish va rivojlantirish masalalari yoritilgan. Shuningdek, ta'lim jarayonining barcha bosqichlarida shaxsni har tomonlama rivojlantirish va voyaga yetkazish, unda ijodkorlik, komillik va malakali mutaxassisga xos sifatlarni shakllantirish, ijtimoiylashtirish va mustaqil, tanqidiy, kreativ fikrlash qobiliyatlarini tarbiyalashga yo'naltirilishga e'tibor qaratilmoqda. Ta'limda zamonaviy ta'lim texnologiyalari, raqamli vositalar hamda innovatsion metodlarning pedagogik jarayondagi o'rni tahlil qilinadi. Kreativ fikrlash va loyihalash kompetensiyalarini rivojlantirish bo'yicha tavsiyalar berilgan.*

Kalit so'zlar: *kreativ yondashuv, loyihalash, innovatsion texnologiyalar, bo'lajak o'qituvchi, pedagogik kompetensiya, raqamli ta'lim.*

Аннотация. *В данной статье рассматриваются вопросы формирования и развития дизайнерских навыков у будущих учителей на основе творческого подхода. Также уделяется внимание всестороннему развитию и созреванию личности на всех этапах образовательного процесса, формированию креативности, совершенства и качеств, характерных для квалифицированного специалиста, социализации и развитию самостоятельного, критического, творческого мышления. Анализируется роль современных образовательных технологий, цифровых инструментов и инновационных методов в образовании в педагогическом процессе. Даны рекомендации по развитию творческого мышления и дизайнерских компетенций.*

Ключевые слова: *творческий подход, дизайн, инновационные технологии, будущий учитель, педагогическая компетенция, цифровое образование.*

Abstract. *This article examines the development and enhancement of design skills in future teachers through a creative approach. It also focuses on the comprehensive development and maturation of the individual at all stages of the educational process, the fostering of creativity, excellence, and the qualities characteristic of a qualified specialist, as well as socialization and the development of independent, critical, and creative thinking. The role of modern educational technologies, digital tools, and innovative methods in education is analyzed. Recommendations for developing creative thinking and design competencies are provided.*

Keywords: *creativity, design, innovative technologies, future teacher, pedagogical competence, digital education.*



**ZAMONAVIY TA'LIM STRATEGIYALARI:
MUAMMO VA YECHIMLAR**
Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya
2026-yil 30-aprel



Kirish

Bugungi kunda ta'lim tizimida olib borilayotgan islohotlar pedagoglardan yuqori malaka, kreativ fikrlash, zamonaviy texnologiyalarni qo'llash va ta'lim jarayonini samarali loyihalashni talab etadi. Shu sababli bo'lajak o'qituvchilarni kasbiy tayyorlash jarayonida ularning loyihalash ko'nikmalarini kreativ yondashuv asosida shakllantirish muhim ahamiyat kasb etadi. Dunyo bo'yicha oliy ta'lim muassasalari o'quv-metodik ta'minotini takomillashtirish, innovatsion pedagogik texnologiyalardan foydalangan holda bo'lajak o'qituvchilarda kreativ yondashuv asosida loyihalash ko'nikmalarini rivojlantirish bo'yicha keng ko'lamli izlanishlar olib borilmoqda. Jahonning nufuzli oliy ta'lim muassasalari hamda ilmiy tadqiqot institutlarida shaxsni intellektual qobiliyatini shakllantirish, ularda kreativlik qobiliyatini izchil rivojlantirib borish hamda ilm-ma'rifatli, odob-axloqni egallagan komil inson tamoyillari muammolari bo'yicha tadqiqotlar olib borilmoqda. Oliy ta'lim tizimida kreativ yondashuv asosida bo'lajak o'qituvchilarning loyihalash ko'nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiluvchi yangi texnologiyalar va metodlarni ishlab chiqish tadqiqot ishining dolzarbligini nazarda tutadi. Mamlakatimizda so'nggi yillarda olib borilayotgan islohotlar natijasi hamda 2030-yilgacha belgilangan xalqaro ta'lim konsepsiyasida "Butun hayot davomida sifatli ta'lim olishga imkoniyat yaratish" tamoyili asosida oliy ta'limda bo'lajak o'qituvchilarning kreativlik sifatlarini rivojlantirish, an'anaviy yondashishdan farqli yangi g'oyalarni yaratish, bir qolipda fikrlamaslik, o'ziga xoslik, tashabbuskorlik qobiliyatlarini rivojlantirish talab etiladi. Hozirgi kunda jamiyatdagi iqtisodiy o'sish va ijtimoiy taraqqiyot tobora ko'proq innovatsiya va kreativlikka asoslangan bilimlarga tayangan holda ushbu jarayonni amalga oshirish oliy ta'lim muassasalari oldiga muhim vazifalarni yuklamoqda. Mamlakatimizda ijtimoiy institut bo'lgan oliy ta'lim jamiyatning rivoji va farovonligi uchun zarur maskan hisoblanib, nafaqat barqaror va ustun bo'lishi, balki tez o'zgarayotgan va kutilmagan globalashtirilgan jamiyatda muammolarni hal etish uchun doimiy rivojlanishi lozim. Shu sababli professor-o'qituvchilar, tadqiqotchilar va bo'lajak mutaxassislardan ta'lim-tarbiya nazariyasi va amaliyotida, shuningdek, ushbu jarayonning barcha sohalarida kreativ g'oyalar va innovatsiyalar kutilmoqda. Mamlakatimiz oliy ta'lim tizimida kadrlar tayyorlashning erishilgan darajasini xalqaro maydonda e'tirof etish, zamonaviy ta'limning sifat jihatlarini yanada oshirish, bu boradagi samarali tadqiqotlarni yangi bosqichga ko'tarish o'ta muhim ahamiyat kasb etadi. Ta'limning zamonaviylashuvi o'qitishda kreativ yondashuv bilan belgilanib, u bilim, ko'nikma va malakalarni rivojlantirish va takomillashtirish xususiyatini o'zgartiradi, o'zlashtirilayotgan fanlar mazmunini rivojlantirish, zamonaviy o'qitish texnologiyalarini qo'llash jarayonini sezilarli darajada kengaytirish imkonini beradi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentyabridagi PF-158-son "O'zbekiston-2030 strategiyasi to'g'risida", 2019-yil 8-apreldagi PF-5465-son "O'zbekiston taraqqiyotining yangi bosqichida milliy g'oyani rivojlantirish konsepsiyasini ishlab chiqishga doir chora-tadbirlar to'g'risida" farmonlari, 2017-yil 20-apreldagi PQ-2909-son "Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish choratadbirlari to'g'risida", 2017-yil 30-iyundagi PQ-5099-son



**ZAMONAVIY TA'LIM STRATEGIYALARI:
MUAMMO VA YECHIMLAR**
Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya
2026-yil 30-aprel



“Respublikada axborot texnologiyalari sohasini rivojlantirish uchun shart-sharoitlarni tubdan yaxshilash chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2017-yil 27-iyuldagi PQ-3151-son “Oliy ma‘lumotli mutaxassislar tayyorlash sifatini oshirishda iqtisodiyot sohalari va tarmoqlarining ishtirokini yanada kengaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarorlari hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi. Kreativ yondashuv pedagogik faoliyatni yangicha tashkil etish, o‘quvchilarda qiziqish uyg‘otish, muammoli vaziyatlarni innovatsion yechimlar bilan hal etish imkonini beradi. Loyihalash ko‘nikmasi esa o‘qituvchining dars jarayonini rejalashtirish, metodlarni tanlash, ta‘lim natijalarini baholash va rivojlantirishga xizmat qiladi.

Asosiy qism

1. Kreativ yondashuv va loyihalash ko‘nikmasining mazmuni

Kreativ yondashuv — pedagogning ijodiy fikrlashi, yangilik yaratishi, noodatiy yechimlar topa olishi va ta‘lim jarayoniga innovatsiyalarni tatbiq etishidir. Bu jarayon o‘qituvchidan mustaqil fikrlash, tashabbuskorlik va zamonaviy pedagogik texnologiyalarni egallashni talab qiladi. Loyihalash ko‘nikmasi esa o‘qituvchining ta‘lim jarayonini oldindan rejalashtirishi, maqsadni aniqlashi, o‘quv jarayonining mazmuni va shakllarini belgilashi hamda natijalarni baholash jarayonini to‘g‘ri tashkil etishiga asoslanadi. Loyihalash jarayoni pedagogik faoliyatning muhim qismi bo‘lib, u ta‘lim samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. bo‘lajak o‘qituvchilarda kreativ yondashuv asosida loyihalash ko‘nikmalarini rivojlantirishda innovatsion ta‘lim texnologiyalarining o‘rni, kreativ yondashuv asosida loyihalash ko‘nikmalarini rivojlantirishning pedagogik-psixologik jihatlari, talabalarda kreativ yondashuv asosida loyihalash ko‘nikmalarini rivojlantirish tamoyillari yoritilgan. Ta‘lim tizimida innovatsiya, integratsiya va o‘qitish sifati monitoringini takomillashtirish bo‘yicha amalga oshirilayotgan ilmiy izlanishlarda o‘quv-tarbiya jarayoni natijaviyligiga alohida e‘tibor qaratilmoqda. Bunday yo‘nalishdagi tadqiqotlarda o‘qitish sifatining nazariy-metodologik asoslarini takomillashtirish, kreativ yondashuv asosida bo‘lajak o‘qituvchilarda loyihalash ko‘nikmalarini rivojlantirish, uzluksiz ta‘lim tizimiga innovatsion g‘oyalarni, axborot-kommunikatsion texnologiyalarni joriy qilishga oid ilmiy jihatdan asoslangan takliflarni, tavsiyalar tizimini ishlab chiqishga alohida e‘tibor qaratilmoqda. Ta‘lim boshqariladigan jarayon bo‘lib, uning natijasi, ko‘p jihatdan, tayyorlangan didaktik loyihaga bog‘liq bo‘lib, didaktik loyiha esa ta‘lim texnologiyasining mahsulidir. Har qanday jarayonning boshlanishi va yakuni mavjud bo‘lganidek, didaktik loyihani amalga oshirishning ham bosqichlari bor. Ta‘lim jarayoni bo‘yicha qilinadigan ishlar ikki qismdan iborat: ta‘lim loyihasini tayyorlash va loyihani amalga oshirish. Pedagogika va psixologiya ta‘lim yo‘nalishi talabalarining o‘quv-tarbiya jarayonida talabalarining loyihalash ko‘nikmalarini rivojlantirish jarayoni muammolarni aniqlash, maqsadlarni to‘g‘ri belgilash, rejalashtirish, amalga oshirish, himoya qilish tartibida amalga oshirishga imkon berdi (1- rasm). Muammoni aniqlash bosqichida talabalar “Pedagogik mahorat”




**ZAMONAVIY TA'LIM STRATEGIYALARI:
MUAMMO VA YECHIMLAR**
Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya
2026-yil 30-aprel



fanini o'qitish jarayonida, fandagi qarama-qarshiliklar va muammolar nuqtayi nazaridan tahlil qilishda qiyinchiliklar mavjudligi sababli loyihalash jarayonini tez va aniq shakllantira olmadilar. Maqsaddan kelib chiqqan holda muammoni shakllantirish ham bor edi (talabalar birinchi navbatda nima qilishni xohlashlarini hal qilishdi, keyin esa bu sohadagi muammolarni izlay boshladilar). Ushbu qiyinchiliklar tahlil, taqqoslash va sintezning yetarlicha rivojlangan aqliy operatsiyalari bilan bog'liq. Balki, bu ma'lum darajada hozirgi yoshlarning ma'lumotni tez izlashga, tayyor javob topishga odatlanganligi bilan bog'liqdir. Bu muammoning yechimini loyihalash jarayonida muammoli vaziyatni tavsiflash va tahlil qilish, muammoni tahrirlash bo'yicha topshiriqlarni bajarishda o'qituvchi va talabaning yaqin o'zaro hamkorligini yo'lga qo'yish asosida amalga oshiramiz. Loyihalash faoliyatining ushbu bosqichida "loyiha", "keys", "aqliy hujum", "aql xaritasi", "mifologema", "KBI (kuzatish, bahslashish, ishontirish)" "muammolar daraxti" metodlarini qo'llash muammoning sabablarini aniq topishga yordam beradi.

1-rasm. Loyiha tasnifi



Loyiha o'qituvchi faoliyatining mahsuli bo'lib, qator umumiy xususiyatlarga ega, loyiha asosida pedagog va talabalarning kelajakda birgalikda amalga oshiradigan faoliyati qaraladi. Ta'lim loyihasi mazmuni elementlari (bilimlar, ko'nikma va malakalar, ijodiy faoliyat tajribasi, munosabatlar) dasturlarda qanday berilganligi, darsliklarda qanday aks ettirilganligiga qaratiladi va ushbu ma'lumotlar asosida tadqiqot bo'yicha ta'lim modeli ishlab chiqildi.

2. Bo'lajak o'qituvchilarni tayyorlashda kreativ loyihalashning ahamiyati

Bo'lajak o'qituvchilar uchun kreativ loyihalash ko'nikmasining ahamiyati quyidagilarda namoyon bo'ladi:



**ZAMONAVIY TA'LIM STRATEGIYALARI:
MUAMMO VA YECHIMLAR**
Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya
2026-yil 30-aprel



- ta'lim jarayonini zamon talablariga mos rejalashtirish;
- dars jarayonini innovatsion metodlar asosida tashkil etish;
- muammoli vaziyatlarda tezkor va samarali yechim topish;
- o'quvchilarning mustaqil fikrlash va ijodkorlik qobiliyatini rivojlantirish;
- pedagogik jarayonni tahlil qilish va takomillashtirish.

Shuningdek, kreativ yondashuv asosida loyihalash bo'lajak o'qituvchining kasbiy kompetensiyasini oshirib, uning pedagogik faoliyatga tayyorligini kuchaytiradi.

3. Kreativ loyihalash ko'nikmalarini rivojlantirishning zamonaviy texnologiyalari

Bo'lajak o'qituvchilarda loyihalash ko'nikmalarini shakllantirishda zamonaviy pedagogik texnologiyalar muhim o'rin tutadi. Quyidagi texnologiyalar bu jarayonda samarali hisoblanadi:

a) Loyiha asosida ta'lim (Project-based learning)

Ushbu texnologiyada talaba muayyan mavzu bo'yicha loyiha yaratadi, tadqiqot olib boradi, reja tuzadi va natijani amaliyotga tatbiq etadi. Bu usul talabaning mustaqil ishlash, ijodiy fikrlash va muammolarni hal qilish qobiliyatini oshiradi.

b) Muammo asosida ta'lim (Problem-based learning)

Bu texnologiya o'quvchilarni muammoli vaziyatlarga duch keltirish va ularni tahlil qilish orqali yechim topishga o'rgatadi. Natijada bo'lajak o'qituvchilar tanqidiy va kreativ fikrlashni rivojlantiradi.

c) Case-study (keys usuli)

Keys usuli real hayotiy vaziyatlar asosida ta'lim jarayonini tashkil etadi. Talaba muammo ustida ishlaydi, yechim variantlarini ishlab chiqadi va eng samarali yo'lni tanlaydi. Bu metod bo'lajak o'qituvchining kasbiy qaror qabul qilish kompetensiyasini kuchaytiradi.

d) STEAM texnologiyasi

STEAM (Science, Technology, Engineering, Art, Mathematics) texnologiyasi fanlararo integratsiya asosida kreativ loyihalash ko'nikmalarini shakllantiradi. Bu texnologiya talabalarda ilmiy fikrlash, texnologik yechim topish va ijodiy yondashuvni rivojlantiradi.

e) Raqamli ta'lim texnologiyalari

Bugungi kunda raqamli platformalar bo'lajak o'qituvchilarning loyihalash kompetensiyasini oshirishda muhim vosita bo'lib xizmat qilmoqda. Jumladan:

- Google Classroom, Moodle – darsni tashkil etish;
- Canva, PowerPoint – kreativ taqdimotlar yaratish;
- Kahoot, Quizizz – interaktiv testlar;
- Padlet, Mentimeter – hamkorlik va fikr almashish;
- sun'iy intellekt vositalari – innovatsion ishlanmalar yaratish.

Raqamli vositalar o'qituvchining kreativligini oshiradi va ta'lim jarayonini yanada samarali tashkil etishga yordam beradi

4. Kreativ loyihalash ko'nikmalarini rivojlantirishning pedagogik shartlari



**ZAMONAVIY TA'LIM STRATEGIYALARI:
MUAMMO VA YECHIMLAR**
Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya
2026-yil 30-aprel



Bo'lajak o'qituvchilarda kreativ yondashuv asosida loyihalash ko'nikmalarini shakllantirish uchun quyidagi shartlar muhim:

- ijodiy va erkin ta'lim muhitini yaratish;
- talabalarni mustaqil izlanishga yo'naltirish;
- innovatsion va interaktiv metodlardan foydalanish;
- jamoaviy ishlash va hamkorlikni kuchaytirish;
- refleksiya va tahlil jarayonini yo'lga qo'yish;
- rag'batlantirish va motivatsiyani oshirish.

Xulosa

Xulosa qilib aytganda, bo'lajak o'qituvchilarda kreativ yondashuv asosida loyihalash ko'nikmalarini rivojlantirish zamonaviy ta'limning dolzarb masalalaridan biridir. Bu jarayonda loyiha asosida ta'lim, muammo asosida o'qitish, keys-stadi, STEAM va raqamli texnologiyalar muhim ahamiyat kasb etadi. Kreativ loyihalash ko'nikmalari bo'lajak o'qituvchining kasbiy kompetensiyasini oshiradi, pedagogik mahoratini rivojlantiradi va ta'lim sifatini yaxshilashga xizmat qiladi. Bo'lajak o'qituvchilarda kreativ yondashuv asosida loyihalash ko'nikmalarini rivojlantirishning innovatsion texnologiyalarini takomillashtirish asosida pedagogika fanlari mazmuni boyitildi hamda ularni pedagogik (ta'limiy, tarbiyaviy, ilmiy-tadqiqot, loyihalash) mahoratini rivojlantirishning ijtimoiy pedagogik shart-sharoitlarini tadqiq etish nazariy-metodologik jihatlari va konseptual tamoyillaridan oliy pedagogik ta'lim jarayonida foydalanish jarayonining mazmuni, o'ziga xos xususiyatlari, texnologiyalari, uni tashkil etish yo'llari, shakl va metodlari, o'quv-biluv jarayonini tashkil etishga oid ilmiy metodik tavsiyalardan ta'lim jarayonida foydalanish imkoniyatlari kengaytiriladi. Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim-tarbiya jarayonini loyihalash g'oya - maqsad - kutiladigan natija - taxmin qilish - bashoratlash - rejalashtirish tizimiga asoslanadi hamda mustaqil tadqiqotchilik ko'nikmasini hosil qilishga yo'naltirilib, ijodiy qobiliyat va mantiqiy fikrlashning rivojlanishiga olib keladi, ta'lim jarayonida olingan bilimlarni birlashtiradi, hayotiy muhim muammolarni mohiyatini tushunishga yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti. **"O'zbekiston – 2030 strategiyasi to'g'risida"** PF–158-son Farmoni. 2023-yil 11-sentyabr.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti. **"O'zbekiston taraqqiyotining yangi bosqichida milliy g'oyani rivojlantirish konsepsiyasini ishlab chiqishga doir chora-tadbirlar to'g'risida"** PF–5465-son Farmoni. 2019-yil 8-aprel.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti. **"Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"** PQ–2909-son Qarori. 2017-yil 20-aprel.



**ZAMONAVIY TA'LIM STRATEGIYALARI:
MUAMMO VA YECHIMLAR**
Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya
2026-yil 30-aprel



4. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti. **“Respublikada axborot texnologiyalari sohasini rivojlantirish uchun shart-sharoitlarni tubdan yaxshilash chora-tadbirlari to'g'risida”** PQ–5099-son Qarori. 2017-yil 30-iyun.
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti. **“Oliy ma'lumotli mutaxassislar tayyorlash sifatini oshirishda iqtisodiyot sohalari va tarmoqlarining ishtirokini kengaytirish chora-tadbirlari to'g'risida”** PQ–3151-son Qarori. 2017-yil 27-iyul.
6. O'zbekiston Respublikasi. **“Ta'lim to'g'risida”gi Qonun.** 2020-yil 23-sentyabr.
7. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi. **Oliy ta'limni rivojlantirishga oid qaror va nizomlar to'plami.** – Toshkent, 2020.
8. Azizxo'jayeva N.N. **Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat.** – Toshkent: TDPU, 2018.
9. Ishmuhamedov R., Abduqodirov A., Pardaev A. **Ta'limda innovatsion texnologiyalar.** – Toshkent, 2017.
10. Yo'ldoshev J.G'., Usmonov S. **Pedagogik texnologiya asoslari.** – Toshkent: O'qituvchi, 2016.
11. Sayidahmedov N.S. **Pedagogik mahorat va innovatsion faoliyat.** – Toshkent, 2019.
12. Ziyomuhammadov B., Tojiyev M. **Pedagogik texnologiya: nazariya va amaliyot.** – Toshkent, 2018.
13. Xolmatova M., Qodirova N. **Ta'lim jarayonini loyihalash asoslari.** – Toshkent, 2020.
14. O'ralov A. **Ta'lim jarayonida kreativ yondashuv va innovatsion metodlar.** – Toshkent, 2021.
15. Muslimov N.A. **Kasbiy pedagogika.** – Toshkent: Fan va texnologiya, 2017.
16. To'xtasinov R. **O'qituvchi kasbiy kompetensiyasi va kreativlik masalalari.** – Toshkent, 2022.
17. Abdullayeva Sh. **Pedagogik kompetensiya va kreativlikni rivojlantirish metodikasi.** – Toshkent, 2020.
18. Karimova G. **Bo'lajak o'qituvchilarda innovatsion faoliyatni shakllantirish.** – Toshkent, 2019.
19. Torrance E.P. **Torrance Tests of Creative Thinking.** – Lexington, MA: Personnel Press, 1974.
20. Guilford J.P. **The Nature of Human Intelligence.** – New York: McGraw-Hill, 1967.
21. Sternberg R.J. **Creativity and Intelligence.** – Cambridge University Press, 2003.
22. Robinson K. **Out of Our Minds: Learning to be Creative.** – Oxford: Capstone Publishing, 2011.
23. UNESCO. **Education for Sustainable Development Goals: Learning Objectives.** – Paris: UNESCO, 2017.
24. OECD. **The Future of Education and Skills 2030.** – OECD Publishing, 2019.



**ZAMONAVIY TA'LIM STRATEGIYALARI:
MUAMMO VA YECHIMLAR**
Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya
2026-yil 30-aprel



25. Abdurahmonov M. **Oliy ta'limda bo'lajak o'qituvchilarning loyihalash kompetensiyasini rivojlantirish masalalari** // Pedagogik ta'lim. – 2021.
26. Rasulova N. **Kreativ pedagogika va innovatsion ta'lim texnologiyalari uyg'unligi** // Ta'lim va innovatsiya. – 2020.
27. Qodirova D. **Talabalarda kreativ fikrlashni rivojlantirishning metodik asoslari** // Ilmiy xabarnoma. – 2022.
28. Normurodov A. **Loyiha asosida o'qitish texnologiyasining ta'lim samaradorligiga ta'siri** // Zamonaviy ta'lim. – 2021.